O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI

BUXORO VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O’RGATISH MILLIY MARKAZI

Maktabgacha, boshlang’ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi

Aslanova Nozima Xakimovna

MAKTABGACHA TA’LIMDA FASILITATSIYA AMALIYOTINI JORIY ETISH MASALALARI



Buxoro – 2024 y

Maktabgacha ta'limda fasilitatsiya amaliyotini joriy etish masalalari. MTT tarbiyachilari hamda oliy va professional ta'lim muassasalarining talabalari, magistrantlar, bo'lajak mtt pedagoglari uchun uslubiy tavsiya. Mazkur metodik tavsiyada maktabgacha ta'limda fasilitatsiya amaliyotining nazariy asoslari, mazmuni, shakl va usullari, uni joriy etish mexanizmlari, shuningdek, metodik tavsiyalar, vaziyatli mashqlar, monitoring va baholash tizimi yoritiladi. **Buxoro, 2024 y.**

Muallif: **Aslanova Nozima Xakimovna**

Taqrizchi: **Narziyeva Mastura Sunnatovna**

Ushbu metodik tavsiya Buxoro viloyai pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari kafedrasining 2024-yil 29-apreldagi 4-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

Zamonaviy ta’lim jarayonida bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, ijtimoiy faollik va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Maktabgacha ta’lim tizimi bunga asos soluvchi birinchi bosqich sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, pedagogik jarayonda fasilitatsiya yondashuvi — tarbiyachining o‘qituvchi emas, balki yo‘naltiruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va jarayonni boshqaruvchi sifatida ishtirok etishi — dolzarb pedagogik zaruratga aylanmoqda.

Fasilitatsiyaning dolzarbligi bugungi ta’lim jarayonidagi bir nechta asosiy omillar bilan belgilanadi:

Bola shaxsining markazga chiqishi — zamonaviy pedagogika bilim berishdan ko‘ra, bolaning mustaqil fikrlashi, tanlash, savol berish va ijod qilishini qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. Fasilitatsiya aynan shuni ta’minlaydi.

Ijtimoiy-emotsional rivojlanishning ahamiyati ortmoqda — maktabgacha yoshdagi bolalar uchun empatiya, hamkorlik, muloqot, o‘zini anglash ko‘nikmalari hayotiy zaruratga aylandi. Fasilitator buni o‘yin, suhbat va hamkorlik orqali shakllantiradi.

Axborot ko‘pligi sharoitida yo‘naltirish zarur — tayyor bilim berish samarasiz bo‘lib bormoqda. Bolaga mustaqil izlash, tanqidiy fikrlashni o‘rgatish muhim.

Psixologik xavfsiz muhitga ehtiyoj — bolalar qattiq nazoratdan emas, tushunish, qo‘llab-quvvatlash va ishonchdan rivojlanadi.

Tarbiyachi rolidagi transformatsiya — buyruq beruvchi emas,

kommunikator, moderatsiya qiluvchi, hamkor sifatida faoliyat yuritish davr talabi.

Maktabga tayyorlov sifatini oshiradi — fikr bildirish, muloqot, muammo hal qilish, guruhda ishlash kabi kompetensiyalar keyingi bosqichlarda juda muhim.

Ya’ni fasilitatsiya — zamonaviy, insonparvar, rivojlantiruvchi ta’limning ajralmas mexanizmiga aylangan.

FASILITATSIYA NIMA?

"Fasilitatsiya" tushunchasining mazmuni va kelib chiqishiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, lotincha *facilitas* — yengillashtirish, sharoit yaratish mazmuniga ega.

Fasilitator — yangi tipdagi pedagog hisoblanadi. Bunda buyruq beruvchi emas, yordamchi, muloqotga tayyor, ochiq, ishonchli, jarayonni boshqaradi, natijani esa bola bilan hamkorlikda yaratadi.



1-rasm. Ta’limda an’anaviy yondashuv va fasilitatsiya farqi

Fasilitatsiyaning psixologik-pedagogik asoslari sifatida L.S. Vygotskiyning “Eng yaqin rivojlanish zonasi”, J. Dyuining “Tajriba orqali o‘rganish”, K. Rojersning “Insonparvar yondashuv, ishonch muhiti” metodikalari va faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi muhim rol o’ynaydi.

Maktabgacha ta’limda fasilitatsiya amaliyotining mohiyati uning muhim jihatlarida ko’rinadi. Bolaning tabiiy rivojlanish qonuniyatlari va fasilitatsiyada o’yin — asosiy faoliyat turi sifatida ijtimoiylashuv esa tengdoshlar bilan muloqotda shakllanadi. Bunda qiziqish orqali o‘rganish eng barqaror muloqot va hamkorlik madaniyatini shakllantiriladi. Bolada "Men aytdim – sen eshit" emas, balki "keling, birga topamiz" modeli, ochiq savollar, faol tinglash, refleksiya usullari qo’llaniladi.

Fasilitatsiya muhiti quyidagi talablar asosida amalga oshiriladi. Xavfsiz, psixologik qo‘llab-quvvatlovchi muhitda erkin fikrlash va tanlov imkoniyati, moslashtirilgan mebel, o‘yin zonalari, interaktiv materiallar tanlanadi.

O‘yin orqali fasilitatsiya — bu maktabgacha ta’lim jarayonida bolaning rivojlanishini buyruq, tushuntirish yoki tayyor bilim berish orqali emas, balki o‘yin faoliyatini tashkil etish, yo‘naltirish va qo‘llab-quvvatlash orqali boshqarish demakdir. Bunda tarbiyachi o‘yin muhitini yaratadi, savollar, takliflar, rag‘bat bilan jarayonga kirishadi, bolalarning mustaqil qaror qilishini qo‘llab-quvvatlaydi, fikr, muloqot va hamkorlikka imkon yaratadi, lekin o‘yin natijasini o‘zi belgilamaydi.

O‘yin orqali fasilitatsiyada rolli o‘yinlar, konstruktor va syujetli o‘yinlar va didaktik o‘yinlar muhim ahamiyatga ega.

Fasilitatsiya insonparvarlik va hurmat, jarayon subyekti sifatida bola, erkinlik va mas'uliyat uyg'unligi, hamkorlikda o'rganish hamda individual rivojlanish trayektoriyasi kabi asosiy tamoyillarga tayanadi. (2-rasm)



2-rasm. Fasilitatsiya-ning asosiy tamoyillari

Asosiy belgilar sifatida bola o'yinning faol subyekti, tarbiyachi — kuzatuvchi, hamroh, yo'naltiruvchi bo'lsagina, o'yin orqali bilim, tajriba, muloqot hosil bo'ladi. Bolada ijtimoiy-emotsional, nutqiy va kognitiv rivojlanish rag'batlantiriladi. M**isollar:**

"Do'kon" o'yini — hisoblash, navbat kutish, muloqot ko'nikmasi shakllanadi. **Konstruktor bilan qurish** — muammo yechish, hamkorlik, ijodkorlik, r**olli o'yinlar (shifokor, haydovchi, o'qituvchi)** — empatiya, ijtimoiy rollarni tushunishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Fasilitatsiya nima uchun muhim?

- bolani erkin fikrlashga o‘rgatadi
- tashabbus, mustaqillik va ishonchni kuchaytiradi
- tabiiy, qiziqarli, stresssiz o‘rganish imkonini yaratadi.

O‘yin orqali fasilitatsiya — bu o‘yinni ta’limning asosiy vositasiga aylantirib, bolaga kashf etish imkonini beruvchi pedagogik yondashuvdir.

Fasilitatsiya uchun tashkiliy-interfaol metodlar sirasiga:

- "Aqliy hujum"
- "Fikrlar xaritasi"
- "Doira bo‘ylab muloqot"
- Kichik guruhlarda ishlash va boshqa metod va texnikalar tanlanadi.



Fasilitatsiyada tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim xususiyati aks etadi. Bunda kuzatish, eksperiment, savol qo‘yish, kichik loyiha ishlari, muammo asosida o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’limda fasilitatsiya rivojlantiruvchi muhitni loyihalashda ham namoyon bo’ladi. Bunda STEAM markazlari, sensorika burchagi, til va nutq rivoji zonalari asosiy nuqtalar sifatida namoyon bo’ladi.

Refleksiya texnikalari bo’yicha "Samo – yulduz – chaqmoq" usuli, “rag’bat kartochkalari nima uchun?”, “Necha savolga necha yechim?” "Bugun nimani o‘rgandim?" kartochkalari yaxshi samara beradi.

Fasilitator tarbiyachi o’ziga xos kompetensiyalarga ega bo’lishi lozim. Bunda:

Kasbiy kompetensiyalar, ya’ni pedagogik, psixologik, kommunikativ, metodik savodxonlik kabilar muhim ahamiyatga ega.

Shaxsiy fazilatlar esa, **e**mpatiya, bag‘rikenglik, sabr, moslashuvchanlik xususiyatlarini o’zida mujassamlaydi.

Liderlikning yumshoq modeli, ya’ni “nazorat emas — rag‘bat”, “Buyruq emas — taklif” tamoyillariga rioya etish lozim.

Ota-onalar bilan fasilitativ hamkorlikda seminarlar, maslahatlar, oilaviy loyihalar, kuzatuv va tahlil kartalari yetakchi ahamiyatga ega.

Fasilitatsiya amaliyotini joriy etishning bosqichlari mavjud bo’lib, **dastlabki bosqich** diagnostika bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda bolaning emotsional, ijtimoiy, kognitiv rivoji hamda ta’lim-tarbiya muhiti monitoringi ma’lum muddat davomida olib boriladi.

Ikkinchi bosqich rejalashtirish bosqichi hisoblanadi va yillik, oylik, haftalik, kundalik rejalar, bolaning rivojlanish xaritasidagi indikatorlarni shakllantirish jarayonlarini qamrab oladi.

Uchinchi bosqich amalga oshirish bosqichi hisoblanib,

mashg‘ulotlarda, o‘yinda, muloqotda fasilitatsiya jarayonini tashkil etishga yo’naltirilgan ish mazmunini o’zida aks ettiradi.



To’rtinchi bosqich tahlil va baholash bosqichi hisoblanadi va refleksiya, portfolio, kuzatuv jurnali hamda bolaning rivojlanish dinamikasini baholash jarayonlarini qamrab oladi.

Fasilitatsiya jarayonida ma’lum qiyinchiliklar ham uchraydi. Bular an’anaviy pedagogik stereotiplar, ota-onalarning yetarli tushunmasligi, resurslar cheklanganligi, tarbiyachining psixologik charchog’i va boshqa sabablar bo’lishi mumkin.

Har bir muammo o’z techimiga ega bo’lganidek, bunday muammolar ham o’zining yechimlariga ega. Treninglar, malaka oshirish, hamkorlikdagi amaliy loyihalar, innovatsion materiallar yaratish, psixologik yordam tizimini yo’lga qo’yish ushbu muammolarning ijobiy yechimiga olib keladi.

Fasilitatsiyada amaliy mashqlar, senariylar va vaziyatli topshiriqlar sifatli amaliy ishlar mazmunini boyitadi. **Misol:** "Biz bir jamoamiz"

muloqot o‘yini, muammoli xarakterdagi mashg‘ulot ssenariylari, ota-onalar uchun seminar-treninglar namunalari, fasilitativ so’rovnoma va baholash varaqalari amaliy faoliyat natijadorligini ta’minlaydi.

Monitoring va baholashda kuzatuv jadvali, kompetensiya xaritasi, ijtimoiy-emotsional rivojlanish indikatorlari, jamoaviy faollik ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratish muhim.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Fasilitatsiya — bolani kelajak hayotiga tayyorlovchi mexanizm hisoblanadi, shu bois ta’li-tarbiya jarayonida fasilitativ yondashuvni kuchaytirish shart!

Pedagog, oila va jamiyat hamkorligi fasilitatsiyani sifatli amalga oshirish uchun zarur!

Har bir bola o’ziga xos, noyob. Uning imkoniyatlarini ro’yobga chiqarish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g’risida”gi Qonuni. 23.09.2020 yil O‘RQ- 637-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g’risida”gi Qonuni. O‘RQ-576-son.

4. Azizxo‘jayev N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat O‘quv qo‘’llanma – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. 2006

5. Инновации: теория, механизм, государственное регулирование: Учебн. пособие /Под ред. Ю.В. Яковца. – М.: РАГС, 2000.

8. Канторович Л. Ситемный анализ и некоторые проблемы научно-технического прогресса. М.:Наука, 1986.